MILLIY G‘URURIM

Narzullayeva Muxayyo Iftixor qizi
Mustaqil izlanuvchi

Annotasiya: *Milliy iftixorimga bo‘lgan e’tibor; O‘zbek tilini dunyo tillari orasiga olib chiqish uchun nimalar qila olamiz?*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, sertifikatlar tasdiqlash, til, insho tanlovlari*

1989-yil 21-oktabr o‘zbek tili davlat tili maqomini qo‘lga kiritdi.

Ona tilim-o‘zbek tilining imkoniyatlari juda keng. Shu tilda yaratilgan asarlar, dostonlar o‘zining badiiy-estetik qimmati, betakror tasvir va uslubiy mohiyati bilan o‘ziga xoslik yaratadi. Har bir millat o‘z tili orqali milli qadriyati, turmush tarzini namoyon qiladi. Abdulla Avloniy tili bilan aytganda: "Har bir millatning dunyoda borlig’ini ko‘rsatadurg‘on oynai hayoti tili va adabiyotidir.

O‘zbek tili-tarixir til. Mana asrlar bo‘libdiki, o‘z shon-shuhratini yo‘qotgan emas. O‘zbek tilidagi asarlar qo‘shni davlatlar tomonidan ham sevib o‘qilishi sir emas. Buni rus tilshunosi Kozlyaninaning so‘zlaridan anglab olish qiyin emas, albatta: "O‘zbek tili nafis va musiqa changidek jozibador."

Xo‘sh, shu o‘rinda savol tug‘ilishi tabiiy. Ona tilimizdan nechog‘lik foydalanyapmiz? Foydalana olyapmizmi?

Keling, siz bilan O‘zbekiston ko‘chalari bo‘ylab shu savolga javob izlab yo‘lga tushamiz. Albatta, birinchi o‘rinda do‘konlar, supermarketlar, o‘quv-qurollari rastalari va hatto bozorlarda ilib qo‘yilgan reklama qog‘ozlarida o‘zbek tilida emas, balki rus tilidagi so‘zlarni uchratishimiz, hozirda, tabiiy hol. Bu o‘zbek tiliga bo‘lgan hurmatsizlik emasmi? Bunga kim mas’ul? Oddiy xalqmi yoki rasmiy shaxslarmi?

Sizlar bilan yo‘limizda davom etsak. Yangi qurilayotgan binolar yoki ovqatlanish joylarini ham ingliz yoki rus tillarida nomlash urfda emish, hozir. Masalan, kechagina ovqatlanish uchun kirgan yerim "Fast Food" deb nomlanar ekan. Shu nom bilan qiziqib, bu yerda ishlaydigan bir-ikkita ofitsiantlardan "Bu joyning o‘zbek tilidagi nomi bormi?", -desam hayratga tushishdi va bilmasliklarini ta’kidlashdi. Keyinchalik, yo‘limdan qurilishi ketayotgan yangi binoga ko‘zim tushdi. Bu yerning nomi esa "Nest One". Eng qizig‘i shundaki, "Fast Food"da ishlayotganlar ham, "Nest One" qurilishini loyihalashtirganlar ham va hattoki qurilishda qatnashayotganlarning barchasi - o‘zbeklar. Bu o‘zbek tiliga qilinayotgan e’tiborsizlikning 2-holati edi. Yo‘lda davom etar ekanman, qizchasiga ingliz tilidagi she’rni yodlatishga urinayotgan 30 yoshlardagi ona e’tiborimni tortdi. Yoshlikdan bolaga g‘arb tillarini o‘rgatib, uning madaniyati bilan tanishtirish yaxshi, albatta. Ammo, tanganing boshqa tomoniga qaraydigan bo‘lsak, milliy tilning ruhi, undagi mohiyat qayerda qoladi? Shu o‘rinda o‘qigan rivoyatlarimdan biri esimga tushib ketdi:

Bir kuni donishmand huzuriga ikki ota kelibdi. Biri oʻgʻliga oʻz tilining sir-u asrorlarini oʻrgatmoqchi ekanligini aytsa, ikkinchisi uning gapini boʻlib, oʻz oʻgʻliga falakiyot, matematika, fiqhshunoslik kabi dunyo fanlarini oʻrgatmoqchi ekanligini aytibdi va shu oʻrinda oʻz savollarini berishibdi:

Qay birimiz oqilroq yoʻl tutyapmiz?

Shunda donishmand biroz oʻylanib yuzida nim tabassum bilan javob beribdi:

Bola oʻz ona tilini bilmasa, undagi mohiyat, vatanparvarlik, chin insoniy xislatlarni his qilmas ekan, matematika falakiyot oʻqigani bilan uning mazmunini toʻla anglab yetolmaydi.

Diqqatimni tortgan holatlarning keyingisi shu boʻldiki, OAVda ham tilga nisbatan e’tiborsizlik uchrab turibdi. Ayniqsa, televideniyadagi yozuvlar va reklama boʻlimidagi ayrim yozuvlarning xato yozilishi yoki chet el soʻzlarining qoʻllanganiga tez-tez guvoh boʻlamiz. Hatto yaqindagina oʻqigan maqolamda ham aynan shu haqida gap ketgan edi: " Ochigʻini aytganda, rasmiy matbuotda oʻzbek tiliga boʻlgan e’tiborsizlik anchagina yuqori. Yana ham aniqrogʻi, bu borada davlat muassasalari yetakchilik qilib kelmoqda. Aslida ular tilshunoslarni jalb qilib boʻlsa-da, oʻzbek tilining boyligini xalqqa namoyish etish, yangi soʻz va iboralarni oʻzbekcha talqinini joriy qilishda bosh-qosh boʻlishlari kerak."